



Musiqa san'ati yosh avlodni tarbiyalash vositasi sifatida: musiqa psixologiyasining ijrochi mahoratiga ta'siri

Muallif: Xidoyatullayeva Gulsora Zoirovna ¹

Affilyatsiya: O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti o'qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14384539>

ANNOTATSIYA

hozirgi kunning ta'lim sohasidagi muammosi, axborotning haddan tashqari ko'pligi, shiddatli sur'atda rivojlanishni talab etayotgan zamonaviy ijodkorlikning eng qisqa va to'g'ri yo'li – inson ruhiyatiga e'tibordir. Maqolada o'rta asr sharq allomalari risolalarida musiqa psixologiyasiga nisbatan birlamchi farazlari va hozirgi kunda yosh avlodni tarbiyalashda bu fanining o'rni.

Kalit so'zlar: Yosh avlodni tarbiyalash, musiqa san'ati, musiqa psixologiyasi, ijrochilik mahorati, Botir Zokirov.

Bugun O'zbekiston respublikasi rivojlangan, taraqqiy etgan jamiyatni qurishda jadallik bilan olib borilayotgan yosh avlodni xar tomonlama kamol toptirish maqsadida, ularni ma'naviy, siyosiy va ongli shaxs etib tarbiyalash, estetik madaniyatini oshirish kabi masalalar birlamchi vazifalardandir. Ayni vaqtda, yosh avlodni xar tomonlama kamolotga yetkazish borasida ta'lim sohasida o'qitish tizimini yaxshilash uchun pedagogik texnologiyalarni innovatsion usulda rivojlantirish, hamda milliy qadriyatlar va an'analarni chuqur o'rganib yosh avlodga eng yaxshi namunalarini yetkazish kabi ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Barkamol avlodni axloqiy tarbiyalashni keng ko'lamda olib borishda, san'at, xususan musiqa san'atini mukammal o'rganish katta tarbiyaviy kuchga egadir. Musiqa estetik va ma'naviy rohatlanish, zavqlanishning eng katta manbai bo'lib, insoniyatni butun hayoti davomida hamrohlik qilib kelmoqda. Musiqa – bu san'at bo'lib, insonga eng katta hissiy va ruhiy ta'sir o'tkaza oladigan kuchga ega omil. Zero bu san'at eng qadimiy, ayni chog'da zamonaviy va xar qaysi xalqqa yaqin bo'lgan san'at turi sanaladi.[4.2]

Sharqning o'rta asr tarixidan buyuk qomusiy olim, musiqa cholg'ularini mohirlik bilan chalgan Abu Nasr Forobiy o'z ijrosi bilan kishilarni quvontirish yoki qayg'uga solish, ovutish yoki chuqur o'y surishga majbur qilish, xursand qilish, hayratga solish va hatto uxlatib qo'yishning uddasidan chiqa olganligi haqidagi hikoyat va rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. Bu nima? Ijrochining mahoratimi? Shaxsiyat xususiyatlarining musiqa orqali inson ongiga, ruhiyatiga ta'sirimi? [2.3] Musiqa san'atini inson ruhiyati bilan bog'lar ekanmiz, nafaqat B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti, balki musiqa madaniyati ixtisosligi bo'yicha o'qitayotgan Oliy ta'limlarda xam psixologiyaning bir

qismi bo'lmish – musiqa psixologiyasini o'rganilishi va shu ixtisoslik bo'yicha kadrlarni tayyorlash kabi dolzarb masala ko'rib chiqilishidan umidvorman.

Professional musiqachi, mutaxassis - musiqa psixologiyasidagi jihatlarni yetarli darajada o'zlashtirib olishi kerak. Bu musiqiy tovushlar, obrazlar, tafakkur va hissiyotlar dunyosi kishi ruhini ko'taradi, uni borliq bilan birlashtiradi, gohida tasavvurlar, xayollarning tushuntirib bo'lmas imkoniyatlarini ochadi, dunyoning cheksiz kengliklariga olib ketadi, haqiqatga, idealga yaqinlashtiradi, hayotimizni ma'noli, mazmunli, ma'naviy boy va go'zal qiladi. Oliy dargoh talabalari kelajakda 85-90%i kun kelib pedagoglik kasbida faoliyat yuritishni boshlaydi. Hozirgi shiddatli axborot oqimida arang qolib ketayotgan yosh avlod, qay bir ma'lumot to'g'ri, qay biri foydasizligiga ahamiyat xam berib o'tirmaydi. Bunday musiqiy did, ruhiyatni tarbiyalatishdagi muammoni musiqa psixologiya fanini atroflicha ta'lim tizimiga bo'lajak san'at sohasi pedagoglarini tarbiyalashda tayanch bo'ladi deb o'ylayman. Chunki, musiqa psixologiyasi — psixologiyaning shunday sohasiki, u musiqaviy eshitish qobiliyati, eshitish sezgisining chegaralari, musiqaning lad, ritmikasini his qilish, sozni taktil (paypaslab) sezish, musiqaning anglanishi, yoddan saqlashi, ijro etilishi va undan bahramand bo'lish kabi masalani qamrab oladi. Platon aytgandiki, "davlatning qudrati va kuchi - unda qanday usulda, parda va sur'atda musiqa yangrashiga bog'liq".[2.4]

O'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda musiqa psixologiyasi Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Marog'iy, Kavkabiylar kabi buyuk mutafakkirlar ijodida o'z rivojini topdi. Masalan, Forobiy (873 — 950) "Musiqqa haqida katta kitob"ida musiqaning inson psixologiyasi va ruhiy olamidagi ulkan ahamiyati haqida yozgan. Ibn Sino (980—1037) musiqaning ruh bilan birgalikda tanaga ham shifobaxsh ta'sir ko'rsatishi haqida aytib o'tgan. U musiqani ham fiziologik, ham psixologik nuqtai nazardan o'rgangan. Abdurahmon Jomiy (1414—1492) "Risoiat musiqqa"sida, interval oralarining his etilishi, ularning melodik va garmonik tuzilishlari, konsonans (yoqimli) va dissonans (yoqimsiz) bo'lishlari haqida fikr yuritgan.[2.8] Hozirgi zamon san'atida yuzaga kelgan ikki qatlam, ya'ni milliy mumtoz va milliy estrada musiqasini yosh avlodga o'rgatishda bir qancha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol davlatimiz rahbarining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bo'lsa, boshqa tomondan 2020-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorni aytish mumkin. Maqsad, bir tomondan, o'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar an'analari, buyuk bastakorlar, hofiz hamda sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash, targ'ib qilish, xalqimizni musiqiy merosimizning eng go'zal an'alaridan bahramand etish bo'lsa, ikkinchi tomondan yoshlarni Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashning muhim vositasi sifatida milliy estrada musiqqa san'atini rivojlantirishga alohida e'tibor berishdir. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, milliy estrada musiqqa san'atimizning asoschisi Botir Zokirovning ijodiyoti hozirgi kun yoshlari uchun katta tarbiyaviy, ruhiy-estetik maktab vazifasini o'tashi shakl shubhasiz.[3.2] Uning yuqori salohiyatli san'atkor sifatida eslashimizga sabab, ijodidir. B.Zokirov nafaqat qo'shiqchilik sohasida, balki, tasviriy san'at, she'riyat, kino va teatrdan o'zining so'nmas asar namunalari va ijrolari bilan tilga olinadi. [1.123]

Xulosa o'rnida aytish lozimki, milliy estrada musiqa san'atimizni yorqin namoyandasi bo'lmish Botir Zokirov ijodini o'rganishda uning nafaqat materialistik jihatlari, balki asarlaridagi ijodiy ruhiyatni chuqur o'rganish va o'rgatilishida musiqa psixologiya fani qo'l kelishi mumkin. Bu nafaqat milliy estrada musiqamizda, balki musiqa san'atimizning barcha jabhalarida qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mannopov S. "O'zbek xalq musiqasi madaniyati". Toshkent 2004
Kadirov R.G. Musiqa psixologiyasi. Toshkent 2005
Jo'rayev A. Qo'shish dunyosining majnuni. "Tafakkur" jurnali 2006/2
Xidoyatullayeva G.Z. Fortepiano sinfida an'anaviy va zamonaviy o'qitish usullarining uyg'unlashuvi. "Oriental art culture" ilmiy-metodik jurnal. 2020/3

